

## MUHAMMAD ALINING “ULUG‘ SALTANAT”IDAGI - BUYUK AHAMIYAT

*Igamurodova Sarvar Abulkosimovna*

*Samamarqand davlat universiteti Urgut filiali ARM mudirasi*

**ANNOTATSIYA** Ushbu maqolada yoshlarda kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘quvchi-yoshlarda mutolaa madaniyatini tarkib toptirishda ulug‘ yozuvchi Muhammad Alining “Ulug‘ sultanat” kitobining bugungi kundagi ahamiyati, vazifalari haqida fikr yuritiladi. Zamonaviy oliy ta’lim muassasalarida yoshlarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishdagi asosiy vazifalar ko‘rsatib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** yoshlar kitobxonligi, kitobxonlik ko‘nikmasi, Muhammad Ali, “Ulug‘ sultanat” romani.

Bugungi kun oliy ta’lim dargohlarida yoshlarning kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘quvchi-yoshlarda mutolaa madaniyatini tarkib toptirish, tizimli yondashuv asosida talabalarning o‘qish madaniyatini shakllantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shu bilan birga barcha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, tashkiliy-integrativ modelini takomillashtirish, kitob o‘qishga qiziqishni tarbiyalashning interfaol texnologiyalarini ishlab chiqish dolzarblik kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagи PF-5953-sон Farmoni bilan tasdiqlangan 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori:

“milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, mutolaa madaniyatini yuksaltirish, respublikaning olis hududlarida va yoshga doir kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish;

kitob savdosini tashkil etish tartiblarini soddalashtirish, yangi nashr etilgan kitoblarni yetkazish va axborot manbalarini tarqatish tizimini takomillashtirish;

kitob yetkazib beruvchilarni zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarga moslashtirish, infratuzilmani yaxshilash, axborot-kutubxona markazlarini chop etiladigan bosma nashrlar va ularning elektron nusxalari bilan to‘ldirib borish, elektron kitoblar yaratish, kitoblarni raqamlashtirish va elektron kataloglarni tuzish hamda tizimli ravishda yangilab borish;

aholining kitobxonlik darajasi va kitobga qiziqishini tizimli o‘rganib borish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovlarni tashkil etish, kutubxonachi kadrlar salohiyatini oshirish;

xorijiy asarlarga onlayn buyurtma berish, ularni respublika hududiga olib kelish va tarqatish tizimini hamda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro hamkorlikni kengaytirish” kabi vazifalar belgilab berildi. Bu esa yoshlarda kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy metodologiya asoslarini aniqlashtirish, kitobxonlik ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqish, yoshlarda kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish bosqichlarini aniqlashni taqozo etadi.

Bugungi kunda yoshlarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish masalasi bugungi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqlarini oshirish bilan birgalikda “o‘qish savodxonligi” ham yaxshilanadi. Badiiy kitoblarni o‘qishda o‘quvchilar voqealar, voqea joylari, obrazlar, oqibatlar, personajlar, asar muhiti, hissiyotlar va g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan matnni o‘qiydi va matn tilidan huzurlanadi. Adabiyotni tushunish va uni qadrlash uchun, har bir o‘quvchi matnda (asarda) sodir bo‘ladigan voqealar, hissiyotlar, tildan foydalanish san’ati hamda badiiy shakl haqida bilimni o‘z xayolidan o‘tkazishi kerak. Adabiyot yosh o‘quvchilar uchun o‘zлari hali boshidan kechirmagan holatlar va hissiyotlarni kashf etish imkoniyatini beradi.

Adabiyotimizdagi ana shunday ulug‘ asarlarimiz mavjud bo‘lib, taniqli adib Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” roman-epopeyasi “Ulug‘ saltanat” kitobi to‘rt qismdan iborat bo‘lib, u o‘quvchiga Amir Temur va uning avlodlari haqida bir-biridan

qiziqarli va asosli tarixiy ma'lumotlarni taqdim etadi. Roman-epopeyada o'quvchilar Amir Temurning farzand tarbiyasidagi o'rni, mamlakatni boshqarishdagi hukmdorlik vazifasi, xalqaro munosabatlardagi faoliyati, mamlakatda va qo'shni yurtlarda olib borgan buniyodkorlik ishlari, Yevropa xaloskoriga aylanishiga sababchi bo'lgan ulug' jang tasvirlarini o'qishi mumkin. Asarni mutolaa qilar ekanmiz, bir butun holatda o'qish o'quvchiga voqealar rivojini, sabab va oqibatlar tasavvur etishga yordam beradi. "Ulug' sultanat" Amir Temurning goh mag'rur, goh armonga to'liq qirralarini yoritadi. Jahongir Mirzo, Umarshayx Mirzo, Mironshoh Mirzo, Shohrux Mirzo haqidagi kitoblarning har birida ulug' Amir Temurning nurli qiyofasi, faqat o'zigagina xos boshqaruvalo salohiyati, ilm-fan sohiblari suhbatiga oshiqishi, yuksak aql egalarini taniy bilishi, har bir navkarini o'z farzandidek yuragiga yaqin olishi kabi insoniy fazilatlari yorqin bo'yoqlarda aks etgan. Epopeyaning to'rt kitobi to'rt shahzodaga bag'ishlangan bo'lsa-da, bu to'rt chinorning o'q ildizi bitta, ya'ni Amir Temurdir.

Bu asarni bugungi yoshlarimizga o'qishlarini tavsiya qilar ekanman, bu asar bilan tanishgan har bir kitobxonada kitobxonlik madaniyati, g'ururi yuksaltiradi, ongu shuurimni tiniqlashadi, bu muqaddas zaminga, ona tuproqqa nisbatan farzandlik mehri va qarzdorlik tuyg'usi oshadi, buyuk tariximizga oid bilimlari ortadi.

Kitobxonlik darajamizni faol rivojlanayotgan mamlakatlar bilan taqqoslanadigan darajaga yuqori o'rinlarga olib chiqish, yoshlarning o'qiyotgan, faol o'qiyotgan kitobxonlar ulushining doimiy monitoringi yo'lga qo'yib yuqori o'rinlarga olib chiqish asosiy maqsadimiz sanaladi. Hozirgi kunda yoshlar orasida kitobxonlikni targ'ib qilish bo'yicha targ'ibot tadbirlarida ishtirok etadigan yoshlar ulushi ortib bormoqda. Ta'lim sohasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish muammolari ilmiy o'rganish va targ'ib qilish usullari, bugungi kunda davlat ahamiyatidagi masala sifatida qaralmoqda va chora tadbirlari ishlab chiqilmoqda. Yosh avlodning kelgusida barkamol va ma'naviyatli shaxs bo'lib yetishishida mustahkam asos yaratgan, yurtimiz kelajagi uchun munosib yoshlarni tarbiyalash kutubxona faoliyatining asosiy vazifasi sanaladi.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob maxsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini

oshirish xamda targ‘ib qilish bo‘yicha komissiya to‘zish to‘g‘risida”gi F-4789-son Farmoyishi, O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to‘plami, 2017 yil., 38-son, 1029-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasini yanada Rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sон Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to‘plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.

3. “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat dasturi. 2018 yil. Toshkent.

4. G‘aniev B.Yoshlar o‘qish madaniyatini tarbiyalashning muammolari// 2004 A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2004.135-137B.

5. Kitob komillikka yetaklaydi/ metodik-bibliografik qo‘ll. To‘zuvchi M.Boltaboeva.